

Hazratov Nurali Burhon o'g'li

Qarshi davlat universiteti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)hazratovnurali@gmail.com

0009-0000-9695-7947

SUG'D VOHASINING DAVLATCHILIGI TARIXI

Annotatsiya. Davlat boshqaruvining shakllanishi insoniyat tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri bo'lib, bu jarayon rivojlanishning sifat jihatidan yangi bosqichini boshlab berdi. Dunyo tarixidagi qadimiy davlatlarning tashkil topishi va taraqqiyotida O'rta Osiyo hamda unga yondosh hududlardagi xalqlarning beqiyos hissasi alohida o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: Ilk davlatlar, davlatchilik, madaniyat, Qashqadaryo, Zarafshon, Avesto, Yasht kitob, Baqtriya, Ko'ktepa, Sarmishsoy, Sug'diyona, Marg'iyona, Yoztepa, Qiziltepa, Afrosiyob, Ko'ktepa, Uzunqir, Yerqo'rg'on.

ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ СОГДИЙСКОЙ ОАЗИСА

Аннотация. Становление государственности – одно из важнейших достижений в истории человечества, положившее начало качественно новому этапу развития. Несравненный вклад народов Центральной Азии и сопредельных регионов в становление и развитие древних государств занимает особое место в мировой истории.

Ключевые слова: Ранние государства, государственность, культура, Кашкадарья, Зарафшан, Авеста, Яшт Книга, Бактрия, Коктепа, Сармишсай, Согдиана, Маргияна, Ёзтепа, Кызылтепа, Афросиаб, Коктепа, Узункыр, Еркурган.

THE HISTORY OF STATEHOOD IN THE SOGD OASIS

Annotation. The formation of statehood is one of the most important achievements in the history of mankind, which marked the beginning of a qualitatively new stage of development. The incomparable contribution of the peoples of Central Asia and adjacent regions to the formation and development of ancient states in world history occupies a special place.

Key words: Early states, statehood, culture, Kashkadarya, Zarafshan, Avesta, Yasht Kitab, Bactria, Koktepa, Sarmishsay, Sogdiana, Margiyana, Yoztepa, Kyzyltepa, Afrosiyob, Koktepa, Uzunkyr, Yerkurgan.

Ma'lumki, sovet davrida O'zbekiston hududlaridagi eng qadimgi, qadimgi va o'rta asrlar davri davlatchilik jarayonlari-ilk davlatlar, ilk shahar madaniyati, shahar-davlatlar, davlatchilikning dastlabki taraqqiyot bosqichlari, o'rta asrlar davri davlatchiligi masalalari arxeolog, tarixchi, sharqshunos, tangashunos, lingvist, huquqshunos olimlar tomonidan ma'lum darajada tadqiq etilgan edi. Ammo, ushbu masala yuzasidan "O'rta Osiyo tarixini formatsiyali davrlashtirish", "O'rta Osiyoda ilk sinfiy munosabatlarning shakllanishi", "Ahamoniylar imperiyasiga qadar O'rta Osiyoda kechgan davlatchilik munosabatlari", "Ahamoniylar" yoki "Kushonlar davlatchiligi" kabi mavzular olimlar tomonidan bahs-munozaralarga tortilgan bo'lsa-da, o'lkamiz hududlarida kechgan davlatchilik jarayonlari mahalliy xalqlarning milliy davlatchiligi tarixi sifatida talqin etilmagan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, milliy tarixga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, sovet davrida noto'g'ri baholangan yoki yuzaki ko'rib chiqilgan masalalarga nisbatan jiddiy ilmiy yondashuv shakllandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-iyuldagi "O'zRFA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish haqidagi" qaroridan so'ng, haqqoniy tarixni yaratishga e'tibor kuchaydi. Ushbu jarayonda birlamchi manbalarga

asoslanish, muammolarni soha mutaxassisleri tomonidan hal etish va ilmiy yondashuv asosida izlanish olib borishga alohida ahamiyat berildi. Shunga qaramay, uzoq o'tmishlarga taalluqli boy tariximizda hali ham yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud[1].

Davlatchilik tarixida boshqaruv tizimi jamiyatning ichki jabhasiga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaganda, insoniyat o'z taraqqiyoti davomida eng oddiy boshqaruv shakllarini tashkil etib, ularni rivojlantirib va takomillashtirib kelgani yaqqol kuzatiladi. Dunyo tarixidagi ilk davlat tuzilmalari miloddan avvalgi III ming yillikda Misrda (nom davlatlarining birlashuvi) va Mesopotomiyada (Akkadning kuchayishi) vujudga kelgan. Ushbu jarayon Sharqning boshqa hududlariga ham, jumladan, Xett davlati, Hindiston, Elam va boshqa o'lkalarga o'z ta'sirini o'tkazgan holda sifat jihatidan yangi xususiyatlarni shakllantirib borgan[2].

Davlat boshqaruvi deganda biz, avvalo, bosh siyosiy hokimiyat va unga aloqador boshqaruv tizimini tushunamiz. Ushbu tizim jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa barcha sohalarini qamrab oladi. Shu bois boshqaruv tizimini har tomonlama va chuqur tahlil qilmasdan turib, jahon xalqlarining tarixiy va madaniy taraqqiyoti, ularning o'zaro aloqalari va ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, mahalliy va global madaniyatlarning integratsiyasiga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar va qonuniyatlarni to'liq anglashning iloji yo'q[3].

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, O'rta Osiyodagi ilk davlatchilik shakllanishi jarayoni dehqon-chorvachilik iqtisodiyotining taraqqiyoti, hunarmandchilikning ixtisoslashuvi va shahar markazlarining tashkil topishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shuningdek, arxeologik tadqiqotlar natijalari bu hududlarda ilk temir davridagi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot jarayonlarini yangi ilmiy yondashuvlar asosida chuqurroq tahlil qilish imkoniyatini taqdim etmoqda[4]. Shuningdek, bu masala to'liq yechimini topmagan bo'lib, ayniqsa, O'rta Osiyodagi ilk davlatlar shakllari va ularning vujudga kelgan sanasiga bog'liq mavzular mutaxassislar o'rtasida hamon bahslarga sabab bo'lmoqda.

Ilk temir davrida O'rta Osiyo hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faoliyatida muhim o'rin tutgan Sug'diyona mintaqasi haqida turli qadimgi manbalarda Sug'da, Sug'uda, Sug'diyona kabi nomlar bilan tilga olinadi. Ushbu nomlarning kelib chiqishi va ularning asl ma'nosi to'g'risida hanuzgacha yagona va umumlashtirilgan ilmiy qarashlar mavjud emas. Ba'zi tadqiqotchilar, jumladan, V.Tomashek, bu nomni eroncha "SUS" – "yonish, yaltiramoq, yorqinlik taratmoq" kabi so'zlardan kelib chiqqan deb hisoblaydilar. Boshqa ilmiy mutaxassislar, masalan, O.Smironova, esa "Gava Sug'uda" atamasini "hosil beruvchi, unumdor vohalar mintaqasi" deb talqin qilishadi.

Avestoning Yasht kitobida uchraydigan "Sug'd makoni Gava" atamasi, ko'plab manbalarda, Sug'diyonaning eng qadimiy hududi sifatida talqin qilinadi. Boshqa tomondan, ba'zi olimlar, xususan, A.Sagdullayev, Gava (Gau) so'zini "buqa" yoki "poda" ma'nosida tushunib, uni Qashqadaryo vohasi bilan bog'lashadi. Ushbu atama viloyatning ko'plab geografik nomlarida saqlanib qolgan bo'lib, masalan, Gauxona, Gavdara, Gaumurda, Gau tog'lari va Gau cho'qqisi kabi joy nomlarida uchraydi[5].

Hozirgi Qashqadaryo va Zarafshon vohalarini (Buxoro, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari, Tojikistonning Panjikent atrofidagi hududlar) o'z ichiga olgan qadimiy Sug'diyona va sug'diylar haqida ilk yozma manbalarda ma'lumotlar juda cheklangan. Avestoda viloyatlarning nomlari ikki xil shaklda keltirilgan - Gava Sug'da va alohida Sug'da. Gerodot esa sug'diylarni ikki marta tilga olgan: birinchidan, Ahamoniylar davlatining XVI satrap o'lkasidagi xalqlarni sanab o'tganda va ikkinchidan, forslarning qo'shinlari safida jangchilari sifatida sug'diylarning o'rini ko'rsatib berganda. Ammo, tarixchi tomonidan sug'd shaharlari, daryolari, tog'lari, hududiy chegaralari haqida bizga hech qanday batafsil ma'lumotlar qoldirilmagan. Ahamoniylar mixxatlarida Sug'diyona haqida asosan rasmiy darajadagi ma'lumotlar taqdim etilgan bo'lib, turli tarixiy masalalarni o'rganishda ulardan foydalanish ancha qiyin kechadi. Ktesiy, Gekatey va Ksenofont asarlarida esa sug'diylar haqida hech qanday ma'lumotlar mavjud emas[6].

Miloddan avvalgi VIII asrning oxiri va VII asrga kelib, O'rta Osiyodagi manzilgohlar rivojlanishida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyona hududlarida shaharsozlikka xos xususiyatlarni o'z ichiga olgan manzilgohlar soni 20 tadan ortiq bo'lgan.

Ushbu manzilgohlarda mustahkam devorlar, saroylar, minoralar, xandaqlar va devorlardagi o'q otish yo'laklari kabi shaharsozlikka xos aniq belgilarning mavjudligi ma'lum. Asosiy manzilgohlar (maydoni 5 gektardan kam) esa qishloq qo'rg'onlari, kichik shaharchalar va dehqonchilik aholisining turar joylari sifatida shakllangan. Shaharlar turiga kiritilishi mumkin bo'lgan yirik qo'rg'onlar ayrim qadimgi dehqonchilik o'lkalarida (Surxon, Qashqadaryo, Zarafshon havzalari va boshqalar) joylashgan, ularning soni esa bir necha dona bo'lgan[7].

Ilk temir davrida Sug'diyonada, hududiy tashkilotlarga asoslangan holda markaziy ahamiyatga ega bo'lgan bir qancha manzilgohlar mavjud edi. Ushbu manzilgohlar maydoni 5 gektardan 15 gektargacha bo'lgan kichik tuman va voha markazlari, masalan, Konimex, Daratepa va Chordara shaharlari, shuningdek, maydoni 20 gektardan 80 gektargacha bo'lgan, viloyat markazi vazifasini bajaruvchi yirik shaharlar, masalan, Yerqurg'on, Uzunqir, Ko'ktepa va Xo'ja Bo'ston, shuningdek, bir nechta viloyat markazlarining funksiyasini bajaruvchi shaharlar, masalan, Afrosiyob (Maroqanda) va Buxoro kabi markazlar mavjud bo'lgan[8].

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, hunarmandchilik ishlab chiqarish korxonalari yirik manzilgohlar ichida markazlashib, ularning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan. Bu holat Afrosiyob qazishmalarida aniq aks etgan. Vaqt o'tishi bilan bunday manzilgohlar hunarmandchilik, tijorat va madaniy markazlarga aylangan. Bu jarayonda qadimiy savdo marshrutlarining roli va ahamiyati juda katta ekanini ta'kidlash lozim. Uzunqir, Afrosiyob, Yerqurg'on kabi qadimgi shaharlari O'rta Osiyo shimoliy dasht hududlaridan o'tadigan savdo yo'llarida joylashgan[9].

Izlanuvchilar Sug'diyonada, xususan Buxoro va Zarafshon vohalarida aniqlangan ilk temir davriga oid arxeologik materiallarni boshqa hududlardagi topilmalar bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ushbu mintaqaning etno-madaniy evolyutsiyasini aniqlashga harakat qilishgan. Buxoro hududidan topilgan "Ahamoniylar davri" yodgorliklari nisbatan kichik geografik hududlarda joylashgan bo'lib, bu mintaqalar kengroq geografik zonalarga tarqalgan etno-madaniy viloyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lishi ehtimoldan holi emas. Ilk temir davri davrida ushbu hududlarda yagona xususiyatga ega bo'lgan dehqonchilik tizimi va madaniyati shakllangan. Mazkur etno-madaniy viloyat dastlab Amudaryo vohasi (Xorazm, Marg'iyona, Baqtriya), Janubiy Sug'd, Markaziy Sug'dning ayrim qismlari, Buxoro Sug'dining shimoliy-g'arbiy va shimoliy-sharqiy hududlari, shuningdek, Ustrushona kabi tarixiy viloyatlarni qamrab olgan bo'lishi mumkin[10].

Qadimgi Baqtriya hududlaridan ko'chish jarayonlari bevosita Amudaryo, Surxon, Qashqadaryo daryolari havzalari hamda ularning irmoqlari orqali amalga oshirilgan. So'nggi bronza davrida Qashqadaryo daryosining yuqori oqimlarida shakllangan madaniyat vakillari tog'li hududlar orqali Markaziy Sug'd (hozirgi Samarqand) mintaqalariga yetib kelishgan. Zarafshon vohasiga keladigan bo'lsak, Markaziy Sug'dning muhim qismi (bir tomondan Afrosiyobning qadimiy shahar atroflari va Ko'ktepa, boshqa tomondan Sarmishsoy va Konimex yodgorliklari bilan chegaralangan) so'nggi bronza davri hamda "Ahamoniylar davri" (miloddan avvalgi IV asrning dastlabki yillari) davomida deyarli o'zlashtirilmagan edi.

Arxeologik manbalarga asoslanadigan bo'lsak, miloddan avvalgi VII-VI asrlarga kelib Markaziy Osiyoning janubida ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy aloqalar tobora murakkablashgan. Ushbu jarayonni yanada chuqurroq yoritish maqsadida Qadimgi Baqtriya haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Midiya saltanatining sharqiy chegaralari Shimoliy Parfiya va Ariya hududlarini qamrab olgan bo'lib, midiyaliklarning Baqtriya hududlariga nisbatan harbiy tahdid tug'dirganligi aniq. Bunga qo'shimcha ravishda, shimoldagi ko'chmanchi qabilalarning ham harbiy bosqin xavfi mavjud bo'lib, bu holat Baqtriyaning harbiy-siyosiy uyushmasi shakllanishiga turtki bergan bo'lishi mumkin. Kir II ning O'rta Osiyoga harbiy yurishlarini hisobga olgan holda, Ahamoniylar davrida Baqtriya va sak-massagetlar uyushmasi Forslar uchun muhim raqib bo'lib chiqqanligi ayon bo'ladi. Fors qo'shinlari O'rta Osiyoning janubiy hududlarini egallaganlaridan so'ng, miloddan avvalgi 530-yilda sak-massaget qabilalariga qarshi keng ko'lamlı harbiy yurish boshlaganlar. Ushbu davrga kelib, Baqtriya harbiy-siyosiy konfederatsiyasi tarkibiga Baqtriyadan tashqari Sug'diyona va Marg'iyona mintaqalari ham kiritilganligini ko'rish mumkin[11].

Bizning fikrimizcha, O'rta Osiyo hududlarida dastlabki davlat uyushmalarining shakllanishida harbiy-siyosiy omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar ham muhim rol o'ynagan. Sababi, siyosiy jihatdan shakllangan davlat yoki uyushma iqtisodiy asosga ega bo'lmasdan turib rivojlanishning yuqori bosqichlariga erisha olmaydi.

Eng yangi arxeologik tadqiqotlar natijalarini tahlil qilgan holda, Yoztepa (Turkmaniston), Qiziltepa (Surxondaryo), Afrosiyob, Ko'ktepa (Samarqand), Uzunqir, Yerqo'rg'on (Qashqadaryo) singari qadimiy shaharlar va manzilgohlardan olingan sopol buyumlar hamda qurilish texnologiyalari o'rtasida sezilarli darajada o'xshashlik mavjudligini qayd etish mumkin. Bu holat, o'z navbatida, ushbu manzilgohlar o'rtasida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar mavjud bo'lganini hamda madaniy almashinuv jarayonlarining rivojlanganligini yaqqol namoyon etadi. Shunga qaramay, Yerqo'rg'on, Qiziltepa, Kuchuktepa va Yoztepada aniqlangan miloddan avvalgi IX-VII asrlarga oid buyumlarning analoglari Xorazm mintaqalaridan hozirgi kunga qadar topilmagani diqqatga sazovordir[12].

Olib borilgan tadqiqotlar natijalarini solishtirib va umumlashtirgan holda, quyidagi xulosaga kelish mumkin: Sug'diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardan boshlab kirib kelgan bo'lib, avval tog'oldi mintaqalari va daryo vohalariga, so'ngra dasht hududlariga tarqalganlar. Ushbu hududlarda mavjud bo'lgan qulay tabiiy sharoitlar ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratgan va bu jarayonning amalga oshishiga zamin yaratgan.

Ta'kidlash lozimki, turli qadimgi manbalarda Sug'diyona nomi tilga olinadigan bo'lsa-da, bu mintaqa alohida mustaqil davlat sifatida eslatilmaydi. Ushbu holat tadqiqotchilar o'rtasida turli bahs-munozaralarga sabab bo'lishiga qaramasdan, arxeologik tadqiqotlar bu masalaga ko'plab aniqliklar kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Т.: "Yangi asr avlodi". 2019. Б.3.
2. Абдуллаев Ў. Ўрта Осиёда қадимги бошқарув ва илк Давлатчилик тарихшунослиги.—Тошкент: Академия, 2009.
3. Массон В.М. Первые цивилизации.—Л., 1989.
4. Асқаров А.А. Энг қадимги шаҳар.—Тошкент: Фан, 2001.
5. Сагдуллаев А.С. Қадимги Ўрта Осиё тарихи.—Тошкент: Университет, 2004.
6. Раимқулов А.А. Катта Суғд—Суғдиёна: тарихий жараёнлар чорраҳасидаги ўлка. Т.: "Iqtisod-Moliya". 2017. 208 Б.
7. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида Давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиш босқичлари (Бактрия мисолида). Докт. Дисс. Автореф. Самарқанд.2009.
8. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самарқандского Согда.—Т., 2002.
9. Сулейманов Р.Х. Древний Нахшаб. Проблемы цивилизации Ўзбекистана VII в до н.э. - VII в н.э.—Т., 2000.
10. Қудратов С.С. Марказий Осиё ҳудудларида илк Давлатларнинг пайдо бўлиши.— Гулистон, 1998.
11. Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон ҳудудида Давлатчиликнинг пайдо бўлиши
12. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи.—Тошкент: Фан ва технология, 2008.